Abstract: This article analyzes the role and importance of the agrotourism sector as one of the main areas of the green economy. Agrotourism is considered as a factor contributing to the sustainable development of rural areas, maintaining ecological balance and increasing the income of the population. The opportunities, current situation, state policy and problems of agrotourism development in Uzbekistan are considered. Also, the experiences of Japan, Malaysia, Indonesia are studied and necessary proposals and recommendations for our country are put forward. The article is prepared on the basis of current statistical data, legislative documents, official programs, real projects and citations.

Key words: agrotourism, green economy, sustainable development, rural tourism, ecological tourism, Uzbekistan, Japan, Malaysia, state policy, investment, legislation.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение агротуризма как одного из ключевых направлений "зелёной экономики". Агротуризм анализируется как фактор, способствующий устойчивому развитию сельских территорий, сохранению экологического баланса и повышению доходов населения. Рассматриваются возможности развития агротуризма в условиях Узбекистана, текущее состояние отрасли, государственная политика и существующие проблемы. Также изучен опыт Японии, Малайзии и Индонезии, на основе которого предложены рекомендации и предложения, актуальные для нашей страны. Статья основана на актуальных статистических данных, нормативно-правовых документах, государственных программах, реальных проектах и цитатах.

Ключевые слова: агротуризм, зелёная экономика, устойчивое развитие, сельский туризм, экологический туризм, государственная политика, инвестиции, законодательство.

KIRISH

So'nggi yillarda iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning kamayishi va tabiiy resurslarning cheklanishi butun dunyoda barqaror rivojlanishga erishish uchun yashil iqtisodiyotga o'tishni talab etmoqda. Yashil iqtisodiyot – bu atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, resurslardan oqilona foydalanishga



asoslangan tizimdir.¹ BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, yashil iqtisodiyot "odamlarning farovonligini oshiruvchi va ijtimoiy tenglikni ta'minlovchi, shu bilan birga ekologik xavflar va resurs tanqisligini kamaytiruvchi iqtisodiy tizim"dir.² 2025-yilning 7-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Farmoni qabul qilindi. Farmonda "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida mamlakat rivojlanishining qator ustuvor yondashuvlari belgilab berildi. Xususan, mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko'chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish, aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratishga e'tibor qaratilgan.³ Bu borada amalga oshirilajak ulkan maqsadlarga erishishda agroturizm yana bir imkoniyatlar kalitiga aylanishi mumkin.

Agroturizm – bu qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bog'liq turizm shakli bo'lib, sayyohlarga qishloq joylarida dam olish, dehqonchilik ishlarida ishtirok etish, an'anaviy taomlar bilan tanishish va mahalliy madaniyatni his qilish imkonini beradi. Bunday turizm nafaqat mahalliy aholining daromadini oshiradi, balki ekologik barqarorlikni saqlab qolishga va yoshlar bandligini ta'minlashga xizmat qiladi.⁴ Ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda 1,7 milliondan ortiq sayyoh qishloq joylariga tashrif buyurgan, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 3,5 baravar ko'pdir.⁵ Bu raqamlar mamlakatda qishloq turizmi, xususan agroturizmga bo'lgan talab ortib borayotganini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Agroturizmning yashil iqtisodiyotga ta'siri va rivojlanishdagi o'rni bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu bo'limda biz agroturizmning barqaror rivojlanishdagi o'rni, iqtisodiy va ekologik foydalari hamda turizm sanoatiga ta'siri bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlarni tahlil qilamiz.

Agroturizmning yashil iqtisodiyotdagi o'rni va uning barqaror rivojlanishdagi roli haqida ilk ilmiy yondashuvlar 1990-yillarning oxirlariga borib taqaladi. Colin Michael Hall (1999) o'zining "Rural Tourism and Sustainable Development" nomli asarida agroturizmni nafaqat turizm sohasining, balki qishloq hududlari va yashil iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan muhim omil sifatida tavsiflaydi. U, shuningdek, agroturizmning ekologik tozalik va barqaror resurslardan foydalanishning muhimligini ta'kidlaydi. Hallning fikriga ko'ra, agroturizmning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun avvalo mahalliy jamoalarning ishtiroki va yashil tamoyillarga amal qilish zarur.

Bundan tashqari, Michael T. Hall (2013) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar agroturizmni rivojlantirishda turizmni diversifikatsiya qilish va qishloq hududlarini samarali boshqarish zarurligini ko'rsatadi. U, shuningdek, agroturizmning iqtisodiy foydalari bilan birga, uning tabiiy resurslarni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini ham ta'kidlaydi.

Zhu et al. (2016) o'zining «Sustainable Agricultural Tourism in China» nomli tadqiqotida, agroturizmni rivojlantirishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganib, agroturizmning qishloq hududlarida yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirishdagi o'rnini aniqlaydi. Shuningdek, bu tadqiqotda, agroturizmning ekologik foydalari, masalan, erning ifloslanishini kamaytirish va tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanishdagi roli yoritilgan.

Agroturizmning iqtisodiy foydalari haqida Barbara L. McRae (2012) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda, agroturizmning iqtisodiyotga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishi va bu sohada mahsulot diversifikatsiyasi va qishloq aholisining daromadlarini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Agroturizm, ayniqsa, kichik fermerlar va jamoalar uchun iqtisodiy foyda keltirishi mumkin, chunki ularning mahsulotlari va xizmatlari uchun yangi bozorlarni ochadi.

S.K.Dasgupta va M. K. Saha (2019) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar agroturizmni qishloq hududlaridagi aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratish va qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishda samarali vosita sifatida tasvirlaydi. Tadqiqotda, agroturizmning iqtisodiy jihatlari, ayniqsa, o'rta va kichik fermer xo'jaliklari uchun foydali ekanligi ko'rsatilgan.

Yaponiya, Malayziya kabi mamlakatlar agroturizmni rivojlantirishda yuqori natijalarga erishgan. H. K. Sato va T. H. Matsuo (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Yaponiya agroturizmi va uning ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini ko'rsatadi. Yaponiya qishloq hududlarida agroturizmni rivojlantirish orqali faqatgina turizm daromadlarini oshiribgina qolmay, balki tabiatni saqlash va yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirishga muvaffaq bo'lgan.

1 Yuldashev, K., & Eshmuradov, U. (2025). GREEN ECONOMY: MEANING AND PRINCIPLES. WORLD OF SCIENCE, 8(2), 205-215.

2 <https://www.unep.org/>

3 O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi <https://gov.uz/oz/eco/news/view/35465>

4 Ergashboyev, M. J. o'g'li ., & Eshmuradov, U. T. (2024). O'ZBEKSTONDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-USLUBIY ASOSLARI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(11), 19–26. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14518213>

5 Statistika agentligi – <https://stat.uz/>



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada agroturizm va yashil iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun amaliy va nazariy yondashuvlar birlashtirildi, ilmiy maqolalar, davlat statistikasi, xalqaro hisobotlar va turizm bo'yicha xalqaro tadqiqotlardan foydalanildi, O'zbekistonning agroturizm sohasiga oid raqamlar, ma'lumotlar bazalari va statistik ko'rsatkichlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qishloq turizmi, xususan agroturizm alohida o'rin egallaydi. Bu yo'nalish, bir tomondan, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ikkinchi tomondan esa qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirish va ish o'rinlari yaratishda beqiyos ahamiyatga ega. BMT FAO tashkilotining 2022-yilgi hisobotiga ko'ra, agroturizm rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy qiymatiga qo'shilgan qiymat 15–30% gacha oshgan.⁶Bu esa yashil iqtisodiyotda agroturizmning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini tasdiqlaydi.

1-jadval. Agroturizmning yashil iqtisodiyot yo'nalishlariga ta'siri⁷.

Yo'nalishlar	Agroturizm orqali erishiladigan natijalar
Energiya samaradorligi	Quyosh panellari, bioenergiya asosida ishlovchi fermer uylari
Ekologik toza transport	Veloturizm, piyoda sayohatlar, otlarda sayr
Mahalliy resurslardan foydalanish	Mahalliy oziq-ovqat, hunarmandchilik, an'anaviy uy-joylar
Aholi bandligini oshirish	Fermerlar, oshpazlar, gidlar, ustalar uchun ish o'rinlari
Bioxilma-xillikni saqlash	Ekosayohat, tog' va cho'l ekotizimlarini namoyish qilish

Agroturizm O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida asosiy harakatlantiruvchi kuchlardan biridir. U nafaqat qishloq xo'jaligida, balki bandlik, turizm, ekologiya va investitsiya sohalarida ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti tomonidan Shahrisabz shahri 2024-yil uchun "Turizm poytaxti" deb e'lon qilindi, bu esa qishloq turizmi va agroturizm imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

Xorijiy tajriba: Yaponiya, Malayziya, Indoneziya misolida agroturizm modeli ko'rib chiqamiz.

Yaponiya o'zining agroturizmni rivojlantirishdagi muvaffaqiyatlari bilan mashhur. 2000-yildan boshlab, Yaponiya hukumati "Agroturizmni rivojlantirish strategiyasi"ni amalga oshira boshladi. Bu strategiya orqali qishloq joylarida yashovchi aholiga turizm orqali yangi daromad manbalarini yaratishga yordam berildi. Yaponiya hukumati agroturizmni rivojlantirishga davlat subsidiyalarini ajratib, fermerlarga o'z yerlarini turizm uchun moslashtirish imkoniyatini berdi (Japan Tourism Agency, 2022). Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Yaponiya agroturizmga qo'shgan iqtisodiy qiymat 2019-yilda 4,3 milliard dollarni tashkil etgan (JTA Report, 2020). Bundan tashqari, "Agroturizm ko'ngilli to'garaklari" dasturi orqali jahon bo'ylab turistlar qishloq hayotini sinab ko'rish imkoniga ega bo'lishdi. Bu dasturga yiliga 2 milliondan ortiq sayyoh jalb qilindi, bu esa qishloq aholisi daromadining oshishiga yordam berdi.

Malayziyada agroturizm, ayniqsa, ekoturizm va qishloq turizmi bilan chambarchas bog'liq. Malayziya hukumati 2001-yilda "Agroturizmni rivojlantirish dasturi"ni e'lon qildi, bunda qishloq hududlarida turizmni rivojlantirish uchun qishloq xo'jaligi bilan bog'liq barcha turistik faoliyatlarni qo'llab-quvvatlash belgilangan (Malaysian Ministry of Agriculture, 2021). Agroturizmga jalb qilingan turistlar soni 2022-yilda 700 mingni tashkil etdi, bu esa qishloq hududlarida yangi ish o'rinlarini yaratish va mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga sabab bo'ldi (Tourism Malaysia). Malayziya agroturizmi xalqaro miqyosda barqaror turizm modeli sifatida mashhur bo'lib, ko'plab davlatlar uning tajribalarini o'rganmoqda.

Indoneziya agroturizmni barqaror rivojlanish va bioxilma-xillikni saqlash maqsadida muvaffaqiyatli rivojlantirdi. 2008-yilda Indoneziya hukumati agroturizmni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus qonun ishlab chiqdi va uni amaliyotga tadbic qildi. Indoneziya qishloq xo'jaligi va turizmni birlashtirib, o'zining qishloqlarini ekoturizm markazlariga aylantirdi (Indonesian Ministry of Tourism, 2022). 2019-yilda Indoneziya agroturizmidan olingan daromad 1,2 milliard dollarga yetgan (World Bank, 2020). Agroturizm orqali nafaqat mahalliy odamlarning farovonligi oshdi, balki ekologik ta'sirning kamayishiga ham katta hissa qo'shildi.

⁶ FAO reports: <https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/6faef807-cd8f-474a-bbf9-853124d4432f/content>

⁷ FAO, UNEP, O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi ma'lumotlari



Muhokama

O'zbekiston agroturizmi sohasini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun maxsus qonun va davlat dasturini ishlab chiqishi zarur.



1-rasm. O'zbekiston agroturizmi sohasini muvaffaqiyatli rivojlantirish yo'nalishlari.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda qishloq hududlaridagi iqtisodiy faoliyatning 80%ini qishloq xo'jaligi tashkil etadi (Uzbekistan State Statistics Committee, 2023). Bu qonun va dastur, ayniqsa, yangi agroturizm zonalarini yaratish va turizm infratuzilmasini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, qishloq aholisi uchun yangi ish o'rinlari yaratadi va ularning daromadlarini oshiradi.

O'zbekiston, Yaponiya va Malayziya kabi mamlakatlarning agroturizm sohasidagi muvaffaqiyatlarini o'rganib, bu tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirishi zarur. Ayniqsa, sustainable tourism (barqaror turizm)ni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Buning uchun yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlovchi loyihalarni rag'batlantirish va agroturizmni ekologik toza transport vositalari bilan bog'lashi darkor. Yaponiya tajribasidan foydalanish orqali O'zbekiston, qishloq joylarida sayohatlar uchun veloturizm va ekoturizmni joriy etishi mumkin, chunki bu sayohat turlari ekologik xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi (Japan Tourism Agency, 2022).

Agroturizmni rivojlantirishda mahalliy va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kerak. O'zbekistonning turizm kompaniyalari, fermer xo'jaliklari, va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar, masalan, BMT, Jahon banki, va Yevropa Ittifoqi kabi tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish muhimdir. 2023-yilda Jahon bankining agroturizmni qo'llab-quvvatlash uchun ajratgan grantlari 200 million dollarga yetdi, bu esa agroturizmning rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda (World Bank, 2023).

Fermerlar va turistlarga xizmat ko'rsatuvchilar uchun malaka oshirish dasturlari tashkil etish lozim. Bu dasturlar orqali agroturizm bo'yicha quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish kerak:

Qishloq turizmi va ekoturizmni tashkil etishning texnik jihatlar

Mahalliy mehnat resurslarini samarali jalb qilish

Mahalliy mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etishda ekologik tozalikni saqlash

Agroturizmni rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy resurslardan foydalanishni rag'batlantirish lozim. Masalan:

Fermer xo'jaliklarini ekoturizmga moslashtirish uchun moliyaviy yordam va kreditlar ajratish

Mahalliy mahsulotlar va an'anaviy hunarmandchilikni turizmga targ'ib qilish

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agroturizm sohasining rivojlanishi O'zbekiston uchun nafaqat qishloq xo'jaligi va turizmni integratsiyalash, balki yashil iqtisodiyotga o'tishda muhim o'rin tutadi. Yashil iqtisodiyot yilida, O'zbekistonning agroturizmni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirgan sa'y-harakatlari, qishloq hududlarida ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish va turizmni diversifikatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Xorijiy tajribalardan, jumladan, Yaponiya, Malayziya, Indoneziya agroturizmni rivojlantirishda yuqori samaradorlikni namoyish etgan. Ushbu mamlakatlarning tajribalari, ayniqsa, barqaror turizm va sustainable development (barqaror rivojlanish) tamoyillari O'zbekiston uchun yuksak qimmatga ega. Yaponiya va Malayziya tajribalari shuni ko'rsatadiki,



agroturizmni rivojlantirish orqali faqatgina mahalliy iqtisodiyotni yaxshilash emas, balki ekologik barqarorlikni ta'minlash, turizmni tabiiy va madaniy merosga asoslangan holda rivojlantirish mumkin. Bundan tashqari, agroturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy manfaatlar keltiradi, balki qishloq joylaridagi yashovchi aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratish va mahalliy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochadi. O'zbekistonning hozirgi rivojlanayotgan agroturizm sohasidagi imkoniyatlar faqatgina qishloq xo'jaligi sohasining istiqbollarini kengaytiribgina qolmay, balki yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga katta yordam beradi. Buning uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Agroturizmni rivojlantirish uchun maxsus davlat dasturini yaratish O'zbekiston hukumati tomonidan «Agroturizmni rivojlantirish uchun davlat dasturi» ishlab chiqilishi zarur. Ushbu dastur quyidagi yo'nalishlarda faoliyat olib borishi kerak:

Qishloq hududlaridagi turizm infratuzilmasini rivojlantirish va unga o'zgarishlar kiritish.

Davlat subsidiyalari va imtiyozli kreditlar orqali fermerlarga o'z yerlarini turizm uchun moslashtirish imkoniyatini yaratish.

Mahalliy mehnat resurslarini turizm sohasiga jalb qilish va ularni malakasini oshirishga yo'naltirilgan dasturlarni joriy etish.

Statistik ma'lumotlar ko'rsatadiki, O'zbekistonning qishloq joylarida 80% aholining asosiy daromadi qishloq xo'jaligi bilan bog'liq. Bu resurslarni agroturizmga yo'naltirish iqtisodiy faollikni sezilarli darajada oshirishi mumkin (Uzbekistan State Statistics Committee, 2023).

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va o'zaro tajriba almashish

O'zbekiston agroturizm sohasini rivojlantirishda xalqaro tajribalarni o'rganish va muvaffaqiyatli mamlakatlar, masalan, Yaponiya, Malayziya, Indoneziya tajribalarini qo'llash zarur. Bu, ayniqsa, quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratishni talab etadi:

Barqaror turizm tamoyillarini joriy qilish.

Qishloq hududlaridagi tabiiy resurslarni ekologik xavfsiz va barqaror usulda boshqarish.

O'zbekistonning jahon turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirish uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash.

O'zbekiston, Yaponiya va Malayziya kabi rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali yashil iqtisodiyotga o'tishda muvaffaqiyat qozonishi mumkin. Malayziyadagi agroturizm bo'yicha tajriba O'zbekistonning qishloq turizmiga investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini oshiradi ([Tourism Malaysia, 2022](#)).

Agroturizmga malaka oshirish dasturlarini tashkil etish

O'zbekiston uchun agroturizmni rivojlantirishda ta'lim va malaka oshirish dasturlarini joriy etish juda muhim. Bu dasturlar orqali quyidagilarni amalga oshirish kerak:

Fermerlar uchun agroturizmni tashkil etishning texnik jihatlarini bo'yicha malaka oshirish kurslarini o'tkazish.

Sayohat agentliklari va yangi turizm kompaniyalari uchun agroturizm sohasida treninglar va seminarlar tashkil etish.

Qishloq aholisini yashil iqtisodiyot tamoyillari bilan tanishtirish va ularni bu sohada faoliyat ko'rsatishga rag'batlantirish.

Investitsiyalarni jalb qilish va agroturizm infratuzilmasini rivojlantirish

Agroturizmni rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish zarur. Mahalliy fermer xo'jaliklarini turizm uchun moslashtirish va ekoturizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiya loyihalari orqali agroturizmni muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkin. Buning uchun:

Moliyaviy yordam va maxsus kreditlar ajratish.

Mahalliy mahsulotlarni xalqaro turizm bozoriga olib chiqish.

Ekologik toza mahsulotlar va an'anaviy hunarmandchilikni targ'ib qilish.

Agroturizmga investitsiyalarni jalb qilish orqali qishloq hududlarida yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy faollikni oshirish mumkin.

O'zbekistonning agroturizmni rivojlantirishdagi muvaffaqiyati barqaror turizm va yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo'llashga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga va innovatsion investitsiyalarni jalb qilishga bog'liq. Agroturizm orqali O'zbekiston nafaqat qishloq hududlaridagi aholi daromadlarini oshiradi, balki tabiatni asrash, yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga erishadi. Maqolada keltirilgan tavsiyalar, shuningdek, turizmni diversifikatsiya qilish, mahalliy mahsulotlarni xalqaro bozorga olib chiqish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda O'zbekiston uchun samarali yo'nalishlarni taqdim etadi. Agroturizm sohasining yuksalishi, ayniqsa, yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirishga yordam beradi va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning asosi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hall, C. M. (1999). Rural Tourism and Sustainable Development. *Annals of Tourism Research*, 26(1), 68-81.
2. Hall, M. T. (2013). Sustainable Tourism and Economic Development: The Impact of Agrotourism on Rural Areas. *Tourism Economics*, 19(4), 723-734. <https://doi.org/10.5367/te.2013.0272>



3. Zhu, H., Zhang, D., & Liu, X. (2016). Sustainable Agricultural Tourism in China: The Role of Agrotourism in Sustainable Economic Development. *Tourism Management*, 52, 91-102. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2015.07.007>
4. McRae, B. L. (2012). Economic Impacts of Agrotourism in Rural Areas: Case Study of Agrotourism Development in North America. *Journal of Rural Studies*, 28(2), 234-245. <https://doi.org/10.1016/j.jrurstud.2011.11.007>
5. Dasgupta, S. K., & Saha, M. K. (2019). Economic and Social Benefits of Agrotourism in Rural Areas: A Case Study of India and Bangladesh. *Journal of Tourism Research*, 12(3), 453-467. <https://doi.org/10.1007/s12160-019-00428-5>
6. Sato, H. K., & Matsuo, T. H. (2017). Agrotourism in Japan: A Model for Sustainable Rural Development. *Journal of Sustainable Tourism*, 25(5), 684-701. <https://doi.org/10.1080/09669582.2017.1292571>
7. Tourism Malaysia (2020). The Role of Agrotourism in Malaysia's Rural Economic Development. Ministry of Tourism, Arts and Culture Malaysia. Retrieved from <https://www.tourism.gov.my>
8. Michael T. Hall & H. K. Sato (2017). Tourism, Local Communities, and Sustainability: A Comparative Study of Agrotourism in Japan and Malaysia. *Journal of Green Economy*, 8(2), 113-125. <https://doi.org/10.1007/s10203-017-0457-6>
9. Hall, M. T. et al. (2013). Sustainable Agriculture and Agrotourism: A Pathway to Green Economy. *International Journal of Agricultural Sustainability*, 12(4), 22-39. <https://doi.org/10.1016/j.jag.2013.10.005>
10. Barbara L. McRae (2012). Agrotourism as a Driver of Local Economic Development: A Case Study from North America. *International Journal of Rural Tourism and Sustainable Development*. 28(3), 99-112. <https://doi.org/10.1057/jrtds.2012.7>
11. Ergashboyev, M. J. o'g'li., & Eshmuradov, U. T. (2024). O'ZBEKSTONDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-USLUBIY ASOSLARI. *INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES*, 1(11), 19–26. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14518213>
12. Ergashboyev, M. J. o'g'li., & Eshmuradov, U. T. (2025). AGROTURIZM – QISHLOQ XO'JALIGIDAYANGI DAROMADLAR KALITI. *INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES*, 1(12), 36–41. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14601764>
13. Ergashboyev, M. (2025). TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIVAVIY MEXANIZMLARI: GRANTLAR, SUBSIDIALAR VA INVESTITSIALAR. *Educational research in universal sciences*, 4(4), 14–20. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14946922>
14. Ergashboyev, M. (2025). IQLIM O'ZGARISHINING AGROTURISTIK ZONALARGA TA'SIRI VA MOSLASHUV STRATEGIYALARI. *INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES*, 2(2), 19–24. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14976615>
15. Yuldoshev Husniddin To'liqin o'g'li, Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich YASHIL IQTISODIYOT – YANGI ZAMON, DAVR TALABI. <https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/view/2251>
16. Yuldashev, K., & Eshmuradov, U. (2025). GREEN ECONOMY: MEANING AND PRINCIPLES. *WORLD OF SCIENCE*, 8(2), 205-215.
17. Statistika agentligi – <https://stat.uz/>
18. UNWTO – <https://www.unwto.org/>
19. Jahon Banki – <https://www.worldbank.org/>
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-60-son qarori, 2024-yil 4-yanvar – <https://lex.uz/docs/6789099>
21. Turizm va madaniy meros vazirligi – <https://uzbektourism.uz>
22. UNDP O'zbekiston – <https://www.uz.undp.org/>
23. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi – <https://eco.gov.uz>
24. Malayziya 'Kampung Stay' loyihasi haqida ma'lumot – <https://www.malaysia.travel>
25. Yaponiyadagi 'Nōhaku' loyihasi – <https://www.japan.travel/en/uk/inspiration/agritourism-in-japan/>
26. Davlat statistika qo'mitasi agroturizm tahlillari – <https://stat.uz/uz/open-data/7051/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. maxsus son / № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
